

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.X.Raxmatova</b>	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari .....	98
<b>X.A.Yulbarsova</b>	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	102
<b>A.B.G'ulomov</b>	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari .....	107
<b>B.Raxmanov</b>	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar .....	110
<b>N.A.Imomova</b>	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari .....	117
<b>L.R.Usmonova</b>	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida .....	122
<b>B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova</b>	
O'zbekistonda tadbirdorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari .....	128
<b>A.Tashanov</b>	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari .....	135
<b>A.A.Qambarov</b>	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	140
<b>D.X.Gafforova, I.I.Rizayev</b>	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari .....	144
<b>J.J.Shodiyev</b>	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni .....	150
<b>D.O.G'afurov</b>	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoferasi .....	155

---

## SIYOSAT

<b>R.B.Mirzabayev</b>	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari .....	159
<b>R.A.Ikramov</b>	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni .....	168
<b>D.Sh.Maxkamov</b>	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati .....	173
<b>M.M.Safarov</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari .....	177

---

## ТАРИХ

<b>A.Sharafiddinov</b>	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) .....	185
<b>M.F.Rasulov</b>	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri) .....	190
<b>M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov</b>	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari .....	196
<b>F.E.Atajanova</b>	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar .....	200
<b>B.T.Mirzaqulov</b>	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi .....	204

**TA'LIM SIFATI VA O'QITISH METODLARINI TANLASHNING ASOSIY JIHATLARI****КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ВЫБОРА МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ****THE QUALITY OF EDUCATION AND THE MAIN ASPECTS OF THE CHOICE OF TEACHING METHODS****G'afforov Yarash Xolliyevich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>G'afforov Yarash Xolliyevich**

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Jahon tarixi kafedrasи professori t.f.n.

**Annotatsiya**

*Maqolada ta'lim sifati va metodlarining xilma-xilligi va rivojlanish bosqichlarining istiqbollari tahlil etilgan. Shuningdek, hozirgi kunda qanday pedagogik vaziyatda qaysi metodlar yordamida yoshlarni o'qitish va tarbiyalashning samaraliroq bo'lishi jarayonlari ko'rsatib berilgan. Dars berish metodlari o'rgatish metodlarini, o'qish-bilish faoliyati jarayonini faollashtirish xususida fikr yuritilgan.*

**Аннотация**

*В статье анализируется качество образования, разнообразие методов и перспектив этапов развития. А также процессы обучения и воспитания молодежи, с помощью которых показаны методы в современной педагогической ситуации. Методы обучения приводят к активизации методов обучения и процесса чтения и учебной деятельности и укрепляют его.*

**Abstract**

*The article analyzes the quality of education and the diversity of methods and perspectives of development stages. Also, the article shows the processes of teaching and educating the students with the help of what kind of methods in the modern pedagogical situation. The teaching methodology is aimed at activating teaching methods, the process of educational and cognitive activity strengthens it.*

**Kalit so'zlar:** grammatik, individual, ekspertlar, majmua, anketa, statistika, texnologiya, malaka, klassifikasiya, optimal, interfaol, mantiqiy.

**Ключевые слова:** Грамматика, индивидуал, эксперты, комплексная, анкета, статистика, технология, оптимальная, интерактивная, логическая.

**Key words:** Grammar, individual, experts, complex, questionnaire, statistics, technology, competenoe, classification, optimal, interactive, logical.

**KIRISH**

Fan-texnika, yangi pedagogik texnologiya, innovatsion jarayonlar va axborot texnologiyalari kun sayin oshib borayotgan hozirgi sharoitda o'quvchilarda umumiy o'qish ko'nikmasi va malakalarini mustaqil egallashining mukammal metodlarini topish kerak. Shuning uchun ham maktab islohatining asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarda kitob va boshqa bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmasini tarkib toptirishning muhimligi ta'kidlab o'tiladi.[1]

Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullar, o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi tehnologik treninglar o'quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisiga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi. Interfaol metodlarni tanlash mezoni – ularning ta'lim va tarbiya, rivojlantirish masalalarini yechishga yuqori yo'nalgaligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir.

O'qitish metodlarini yangilab turish metodologik umumiy tan olingen jarayon hisoblanadi. Bu jarayon metodlarining qotib qolgan ko'rsatmasini qabul qilmaydi. Lekin bu metodlar vaqt o'tishi bilan eskirmaydi, ikkinchi qatorga o'tmaydi, degan ma'noni bildirmaydi. Shunday bo'lishi ham muqarrarlikdan holi emas, chunki o'qitish vazifalari yangilanib turadi, ularni ilgari metodlar bilan hal

qilish mumkin bo'lmay qoladi. Masalan, matnni ma'nosini tushunmay yodlayverishdek qotib qolish (dogmatik) holat ayni kunda maqbul bo'lmay qoldi.

O'qitish metodlari dars berish metodlari bilan o'rgatish metodlarining birligini taqozo etadi va shu ma'noda ular o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyatlarining usullari hisoblanadi. Dars berish metodlari o'rgatish metodlarini, o'qish-bilish faoliyatining jarayonini faollashtirishga yo'llanib, uni kuchaytiradi. Dars berish metodlari o'rgatish metodlarini, o'qish-bilish faoliyatining jarayonini faollashtirishga yo'llanib, uni kuchaytiradi. Shunday qilib, dars berish, o'qitish va bilim metodlarining muayyan xususiyatlari mavjud ekan. Lekin ularning hammasi ham, umuman bilish metodlarining turi sifatida o'quv faoliyati metodlarining prinsipial mohiyatini o'zgartirmaydi.

Amaliy o'qitish metodlarining barcha asosiy turlarini ularni qo'llashda hozirgi zamon metodika va pedagogika fani o'qituvchilarning ilg'or tajribalari kiritadigan yangi holatlarni qayd etib birmuncha bat afsilroq izohlashga harakat qilamiz.

O'qitishning amaliy metodlari doirasi juda keng. Ularga: 1) yozma mashq metodlari; 2) tajriba-laboratoriya yo'nalishidagi mashqlar metodi; 3) mehnat topshiriqlarini bajarish metodlari va boshqalar kiradi.

Birinchidan, yozma mashqlar va ularni bajarishda o'quv axborotlarini shunchaki og'zaki yoki ko'rgazmali ijro qilish sodir bo'lib qolmay, balki olingen nazariy bilimlarni amaliyotda bevosita qo'llash amalga oshiriladi. Yozma mashqlarni bajarishda ularni har tomonlama mustahkamlash, qo'shimcha harakat jarayonlar hisobiga puxtarloq eslab qolish jarayoni sodir bo'ladi. Rasmlar, chizmalar, jadvallarni mustaqil tayyorlash o'zlashtirilgan axborotni mustahkamlashning amaliy usuli va keyinchalik uni chuqurlashtirish, kengaytirish uchun asos xizmatini o'taydi.

Amaliy mashqlar metodidan foydalanimiga olingen nazariy bilimlarni amalda yaxlit qo'llashni to'liq darajada ta'minlash imkonini beradigan mashqlar tizimini tanlash juda muhimdir. Agar masalan savodli (grammatik) yoki imloviy (orfografik) qoidalarning qandaydir guruhi o'zlashtirilayotgan bo'lsa, u hozirda mashqlar tizimi bu barcha qoidalarning amaliy qo'llanilishini to'liq qamrab olishi kerak. Mashqlarni bajarishda o'qitish metodlarining bu turini qo'llashning samaradorligini oshirish ta'minlovchi quyidagi qoidalargi rivoja qilish zarur. O'quvchilar oldiga bajaradigan mashqlarning aniq maqsadini; mashqlarni bajarish davomida qanday bilimlarni qo'llash, nimani mustahkamlash, mashqni bajarish davomida qanday bilim va malakalarini hosil qilish zarurligini qo'yish kerak.**[2]** Mashqlarning maqsadsizligi ularni bajarishda vaqtning ortiqcha sarflanishiga olib keladi, o'quvchilarning amaliy ishga bo'lgan e'tiborini pasaytiradi. Mashqlarni bajarish davomida xatolarni o'z vaqtida payqash va ularni butun sinfga darhol ma'lum qilish kerak. Mashqlarning natijalarini aniqlash baholash va u yoki bu bilimlarni qo'llanish yuzasidan egallangan amaliy ko'nikmalarni yanada takomillashtirish, tadbirlarni belgilash muhimdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'qitish metodlarini tanlashning asosiy jihatlari tadqiqotchilar, olimlarimiz va pedagoglarimiz tomonidan turli xil ilmiy metodik nashrlarda tahlil qilingan. Jumladan, Yu.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiylar ta'lim maktabida o'qitish metodlari. 1990., Smesova E.A. Metodika prepodavaniya istorii v shkole. 2019., YA.G'afforov. Tarix o'qitish metodikasi. 2022., O'.Q.Tolipov., M.U.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyy asoslari. 2006., va boshqalarning bir qator asarlari va ilmiy maqolalarida o'z aksini topgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Amaliy mashg'ulotlar davomida o'qituvchi umumiylar maslahatlar berish va ogohlantirish imkoniyatidan mahrum, chunki har qaysi o'quvchi o'ziga topshirilgan ma'lum ishni bajaradi, shuning uchun ham bu yerda guruh bo'yicha va individual ish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mehnat mashqlari metodi o'quvchilarning ma'lum mehnat harakatlarini va topshiriqlarini ongli bajarishlarini va takrorlashlarini, shu asosda ularda tegishli mehnat mahorati va malakalarini tarkib toptirishni taqazo qiladi. Mashqlarning mazmuni har bir sinfdagi mehnat ta'limi dasturi bilan belgilanadi. Bu dasturlar bajariladigan mashqlarning qiyinchilik darajasi asta-sekin ortib borishini ta'minlaydigan qilib tuzilgan. Shu bilan birga ular mehnat ko'nikmasi va malakalarini yaxshi o'zlashtirib olish uchun zarur bo'ladigan mantiqiy tizimni ham hisobga oladi.

Keyingi yillarda mehnat mashg'ulotlarida mashqlar o'tkazish uchun hilma-xil moslamalardan ham keng foydalanimoqda. Ular mehnatga doir ko'nikma va malakalarini mustahkamlashni

## TARIX

---

tezlashtirishga imkon beradi, o'quvchilarda tegishli bosqich uchun zarur hamda mumkin bo'lgan mehnatning bir tekisda borishi va sur'atini tarkib toptiradi.

Hozirgi kunda qanday pedagogik vaziyatda qaysi metodlar o'quvchilarni o'qitish va rivojlantirishning muayyan vazifalarini samaraliroq bo'lishi va ularni qanday qilib aniqroq biriktirishini ko'rsatuvchi ayrim aniq tadqiqotlarga egadir. Ammo oldindan shuni ta'kidlash mumkinki, metodlarni taqqoslashda bir qator boshlang'ich shartlarga qat'iy rioya qilish zarur, bularni hisobga olmaslik taqqoslash tadbirining o'zini ilmiy-jihatdan noto'g'ri bo'lishga olib keladi.

**[3]**

Birinchidan, biz qabul qilgan klassifikasiya bo'yicha ayni bir kichim guruhga kiruvchi metodlarnigina taqqoslash kerak. Masalan, har xil metodlar guruhidan bo'lgan og'zaki va izlanish metodlarini emas, balki ayni bir kichik guruhning o'ziga kiruvchi reproduktiv va izlanish metodlarini taqqoslash kerak.

Ikkinchidan, umuman metodlarning samaradorligini emas, balki ularning aniq ta'limgazifalarini hal qilishda qanchalik samara berishi mumkinligini taqqoslash kerak. Ayrim vazifalarini hal qilishda esa ular o'rni almashadi: So'ngra shuni ham nazarda tutish kerakki, samaradorlikni taqqoslash, baholash u yoki bu metodning muayyan vazifani hal qilishdagi rolini inkor qilmaydi, balki faqat metodlarni tanlashda ulardan samaraliroq bo'lishi mumkin bo'lgan afzallik berish foydali ekanligini ta'kidlaydi.

O'quv mehnati malakalarini, kitob ustida ishlash tajribalar o'tkazish, materialni to'g'ri eslab qolish o'quv vazifalarini mustaqil hal qilish, asosiysini ajrata bilish, o'z ishini rejalashtira olish kabi mahoratlarni va hokazolarni tarkib toptirishda deyarli barcha metodlardan foydalanish zarur. Ammo shunga qaramasdan, eng muhim metodlar sifatida amaliy metodlarni va mustaqil ishslash metodlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Tadqiqotlarning tarixiy-taqqoslash metodlari. Tarixiy metodlar. Pedagogik tadqiqotlar, xususan, didaktik tadqiqotlar asosan o'qituvchining didaktik faoliyati bilan o'quvchilar taxsili natijasida hamda o'quvchilarning o'z faoliyatları natijasida ular shahsi, bilim, iqtidor va ko'nikmalarining o'zgarishi orasidagi bog'liqlikni ochishga qaratiladi. Ho'sh, bunday bog'liqlik didaktik tadqiqotlar natijasidan olinadimi yoki ularni yaqin, uzoq o'tmishdan olsa bo'lidimi? Amaliy hayot bu muammoga o'zicha javob beradi.

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida ijtimoiy munosabatlar ma'lumotning maqsad va vazifalarini belgilab bergen. Masalan, sanoat ishlab chiqarishini industrilashtirish, ilmiy texnikaviy inqilob ma'lum darajada ta'limgazifalarini tizimlari mazmuni, shakllari va uslublarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi.

Tarixan ta'limgazifalarining barcha hollarida yuz bergen o'zgarishlarning xususiyatlari, tamoyillari, qonuniyatlarini o'rganmasdan turib, ma'lumot masalalari haqida keng tasavvurga ega bo'lish mumkin emas.

Tarixiy pedagogik tadqiqotlarning maqsadi shunday qonuniyatlarini aniqlashdan iboratki, bu qonuniyatlar faqat yakin va uzoq tarixni o'rganishni emas, shu bilan birga ta'limgazifalarining hozirgi ahvolini, undan ham muhimi - kelgusini belgilash imkonini bermog'i lozim. [4]

Nazariy taqqoslash - solishtirish metodi. Bunday pedagogik tadqiqot halqaro pedagogik tadqiqotlarga asosan uch yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish - turli mamlakatlardagi ta'limgazifalarining umumiyligi qonuniyatlarini aniqlash. Dunyoda yuzdan ortiq ta'limgazifalarining mayjud. Albatta, mustaqil O'zbekiston Respublikasida eski ta'limgazifalarining qonuniyatlarini aniqlash mumkin emas. Boshqa mamlakatlarda amal qilib turgan ta'limgazifalarining qulay ijobiy tomonlarini yuqorida ko'rsatilgan taqqoslash-solishtirish tadqiqotlari asosida bizning ta'limgazifalarining ta'limgazifalarining ichki xususiyatlarni aniqlashdan iborat.

Ikkinci yo'nalish har bir ta'limgazifalarining o'ziga hos hususiyatlarni, ularni tasdiqlovchi faktlar to'plamini, turli tarixiy davrlardagi va turli tarbiya muhitlariga oid o'ziga hos tomonlarni aniqlashdan iborat.

Uchinchi yo'nalish ta'limgazifalarining ichki xususiyatlarni aniqlash, o'xshash va farqli xususiyatlarni belgilab, ularning ta'limgazifalarining umumiyligi xususiyatlarni bilan boqliq alomatlarini va alohida hususiyatlarni sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bu turdagagi tadqiqotlar faqat statistik ma'lumotlar va anketalar natijasini tahlil qilish bilan chegaralanmaydi.

Ta'lim tizimlarini tadqiq etish maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xalqaro ekspertlar guruhlari tomonidan tegishli ilmiy-tekshirish tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Buning uchun ilmiy-tadqiqotning mahsus konsepsiysi, usullarini tanlab olish mezonlari ishlab chiqiladi va matbuotda e'lon kilinadi. Keng kitobxonlar va qiziquvchilar e'tiboridan o'tgan konsepsiya Xalqaro pedagogik uyushmalar tomonidan tasdiqlanadi va bevosita ishga kirishiladi.

Ta'lim metodi-o'quv jarayonning majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetining o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida ta'lim jarayoni e'tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida ta'lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki o'zida ahloqiy hislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishini ta'minlaydi, ahloqli insongina ta'lim (bilim)ni qadrlay oladi, zero ahloqning asosiy kategoriyalaridan biri ham bilimlilik sanaladi, degan g'oyani ilgari suramiz.

Ma'lumki, XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan, texnika va texnologiyalar rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (g'oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarni yangicha mazmun kasb etishini ta'minladi. Hizmat ko'rsatish sohalarining paydo bo'lishi, yangi turmush tarzi kishilarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunki murakkab texnika va texnologiya bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy extiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.<sup>[5]</sup>

XX asrning 50-yillarda ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "Ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy etibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirishni, texnik vositalarning takomillashtirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatlari tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini va "Ta'lim vositalarini texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi.

XX asrning 60 yillardan boshlab ta'limi dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "Texnologiya" tushunchasining mohiyatini olib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim o'quvchilarga muayyan bilimlarining aloxida qismi xolida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQSH da faoliyat yurita boshlagan "Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan qo'mita" tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitini aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'zgartirish majmuasini to'laligicha qayta tashkil etish tushunchasiga qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi.<sup>[6]</sup>

### XULOSA

Agar yuqorida aytilganlarga yakun yasaydigan bo'lsak, o'qitish metodlarni ta'riflashda quyidagi tamoyillar muhim metodologik va nazariy qoidalarga asos bo'la oladi deyish mumkin:

1. O'qitish metodlari o'quv jarayonining o'ziga xos sharoitida ob'ektiv reallikni bilish metodlarining ifodasi hisoblanadi, shuning uchun ham ular ob'ektiv-sub'ektiv xarakterga egadir.

2. O'qitish metodlari o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va shular bilan bog'liq bo'lgan mazmunni o'zlashtirishdek vazifalarni echishda pedagogik hamda ta'lim oluvchilarni o'zaro bog'lovchi faoliyatlarining usullari hisoblanadi,

3. O'qitish metodlari o'qitishning moddiy vositalari bilan o'zaro uzviy bog'langandir.

## TARIX

4. O'qitish metodlari o'zaro bog'langan faoliyat usullar sifatida faoliyatni amalga oshirish bosqichining hamma asosiy tarkibiy qismlarini-motivlashtirishni, harakat va ma'lumotlarni uysushtirishni, natijalarini nazorat ostiga olish va tahlil qilishni aks ettirishi kerak. Faoliyatning aylib o'tilgan tarkibiy qismlaridan hatto bittasining bo'lmasligi ham maqsadlarga optimal tarzda erishishga imkon bermaydi.

5. Inson faoliyati usullarining boyligi o'qitish metodlarining boyishiga va bitmas-tuganmas bo'lishiga olib keladi.

6. O'qitish metodlarining klassifikasiyasini bir nechta bo'lishi mumkin, chunki klassifikasiyalashni amalga oshirishga imkon beradigan asoslar juda ko'p.

7. O'qitish metodlari, o'z navbatida, o'qitishning aniqroq usullaridan tarkib topadi.

8. O'qitish metodlarini har xil asoslarga ko'ra ajratish mumkin ekan, demak o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining real usulini ham har doim bir qator o'qitish metodlari (og'zaki, muammoli, deduktiv va hokazo)ning birikmasi sifatida tassavvur etish mumkin. Shu ma'noda o'qitish metodlari doimo muayyan birikmalarda qo'llanadi deb ta'kidlash to'la o'rinnlidir.

O'qitish metodlarining aniq birikmasi bilan bir qator alohida o'qitish metodlarining jamlanmasi, sifat jihatdan o'ziga hos butunlik hisoblanadi.

Har bir aniq vaziyatda metodlarning u yoki bu birikmasida ulardan biri, qaysi ta'lif vazifasi asosiy hisoblanishiga qarab, ustunlik qiladi. Mazkur vazifani shu vaziyatda ayniqsa muvaffaqiyatli hal qiluvchi metod-ustunlik qiluvchi, yetakchi, tizim hosil qiluvchi metod hisoblanadi.

O'qitish metodlaridan biri o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalaridan birini ancha muvoffaqiyatliroq, ikkinchilari kamroq muvoffaqiyatlari va uchinchilari butunlay bo'sh hal qiladi. Shu ma'noda muayyan didaktik vazifani hal qilish bo'yicha bir guruhning o'ziga kiruvchi o'qitish metodlarining samaradorlik darajasidagi har hillik to'g'risida gapirish mumkin. O'qitish metodlarini tanlash tadbirining ob'ektiv zarurligi mana shundan kelib chiqadi.

Shunday qilib, xilma-xil o'qitish metodlarining imkoniyatlari nisbiydir va bu metodlarni qiyoslashda ular qo'llaniladigan sharoitlarni xal qilinadigan vazifalarining harakterini material mazmunining xususiyatini o'quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasini qat'iy hisobga olish kerak. O'qituvchilarning ish tajribasida o'qitish metodlarining to'g'ri tanlash muammosini ma'lum darajada etarli tushuntirmaslik hollari uchraydi. Lekin u yoki bu metodni optimalligi uning atalishi, uning odadtagichka bo'lib qolganligi bilan emas, balki uning dars vazifalari va mazmuniga o'qituvchi va o'quvchilarning imkoniyatlariga muvofiqligi bilan baholanadi. Eng maqbul tanlagan metodlar qo'yilgan vazifalarning ajratilgan vaqtida yaxshiroq hal qilish imkonini beradi.<sup>[7]</sup>

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yu.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lif maktabida o'qitish metodlari. —T., O'qituvchi, 1990-yil, 4-bet.
2. Yu.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta'lif maktabida o'qitish metodlari. —T., O'qituvchi, 1990-yil, 130-132 betlar.
3. Smesova E.A.Metodika prepodavaniya istorii v shkole —T. 2019-yil. "FAVLASUFLAR" 63str
4. T.Toshpo'latov, Ya.G'afforov. Tarix o'qitish metodikasi. —T.Turon-iqbol, 2010-yil. 72-bet.
5. Ya.G'afforov. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. —T. "Ishonchli hamkor" 2022-yil 10-bet.
6. O'.Q.Tolipov., M.U.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.—T.Fan, 2006, 9-bet.
7. Ya.G'afforov Tarix o'qitish usullari tizimini rivojlantirish va tarix ta'limi samaradorligini oshirish usullari. 2020-yil, aprel. (Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching) ERPA International Journal of Multidisciplinary ary Research (IJMR) 12.05.2020. India.